

Ushbu test varianti 30ta test topshirig‘idan iborat.

Kitobda yopiq va ochiq turdag'i test topshiriqlari mavjud.

Yopiq turdag'i test topshiriqlarida berilgan to'rtta javobdan bitta javobni tanlash va javoblar varaqasida tanlangan javobga mos bo'lgan xarfni (A, B, C yoki D) topshiriq raqamiga mos qatorga yozish kerak.

Ochiq turdag'i test topshiriqlarida javobingizni javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga to'liq va aniq tarzda yozish kerak.

1. Quyidagilardan Xeroniya yaqinida jang bo'lib o'tgan va Karfagen Rim qo'shinlari tomonidan butunlay vayronaga aylantirilgan yillar oralig‘ida jahon tarixida sodir bo'lgan voqealar to'g‘ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping.

1) forslar va yunonlar o'rtasida Marafon jangi bo'lib o'tdi; 2) Gannibal Shimoliy Italiya hududiga bostirib kirib, Kann yaqinidagi jangda rimliklar armiyasini tor-mor etdi; 3) Fors podshosi Kir II Yangi Bobil podsholigini bosib oldi; 4) ko'chmanchi yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini bosib oldi; 5) Makedoniyalik Aleksandr Maroqandani egalladi; 6) Rimda Spartak qo'zg'oloni bo'lib o'tdi; 7) Sin Shixuandi Xitoyni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi; 8) Makedoniyalik Aleksandr Sharqqa yurish boshladi; 9) Korinf ittifoqi vujudga keldi; 10) Xitoyda Xan sulolasini hukmronligi boshlandi; 11) Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqdi.

- A) 11, 10, 7, 5, 1, 3, 9, 6
- B) 11, 4, 6, 7, 5, 1, 3, 8
- C) 9, 8, 5, 11, 7, 2, 10
- D) 4, 2, 5, 7, 10, 11, 6, 1

2. Quyidagi davlatlar tarixi bilan bog'liq voqealar mos ravishda ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Qadimgi Xorazm; 2) Qang‘ davlati;
3) Davan davlati;
a) mil.avv. IV asrda Ahamoniylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil davlatga aylangan;
b) mil.avv. II asr oxirida qudratli davlat birlashmasiga aylangan; c) mil.avv.
II-I asrlarda yuksak taraqqiy etgan davlatga aylangan; d) hududidan Buyuk Ipak yo'llining shimoliy tarmog‘i o'tgan; e) davlat poytaxti xitoyliklar tomonidan egallab olingan va aholining tovon to'lashi evaziga uni tashlab chiqishgan; f) mil.avv. I asrda va milodiy dastlabki asrlarda kumush va mis tangalar zarb etilgan.

- A) 1-b, c; 2-a, e; 3-d, f
- B) 1-b, c; 2-d, e; 3-a, f C) 1-a, f; 2-b, d; 3-c, e
- D) 1-a, f; 2-c, d; 3-b, e

3. Quyida berilgan qatorlardagi nuqtalar o'rniغا mos keluvchi tarixiy shaxs nomini aniqlab, mos ravishda yozing.

- 1) Kiyev Rusi – Yaroslav;
- 2) Chexiya davlati – Vatslav;
- 3) Franklar davlati –;
- 4) Bolgariya podsholigi –;
- 5) Polsha davlati –

Tarixiy shaxslar: *Gelbert, Egidiy, Xilperik, Mavrikiy, Asparux, Vladimir Monomax, Yustinian I, Meshko I*

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

4. Quyidagi ma'lumotlar qaysi tarixiy shaxs haqida ekanligini aniqlab, mos ravishda yozing.
- I. "U hokimiyatga XVII asrda keldi. Tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri Rossiyan kuchli harbiy-dengiz flotiga ega davlatga aylantirish edi va u bu vazifani muvaffaqiyat bilan amalga oshirdi. Uning hukmronligi davrida Rossiya imperiyaga aylandi va mamlakatda mutlaq monarxiya to'la qaror topdi."
- II. "U XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asr boshlarida Hindistonda hukmronlik qilgan. Parchalanayotgan imperiyani saqlab qolishning yo'li sifatida islom dini qoidalarini qat'iy joriy qilishga kirishdi. Musulmon bo'lмаганлардан олинадиган жизя solig'ini qayta tikladi, hindlar uchun qolgan barcha soliqlarni ikki hissaga oshirdi, ularga o'z bayramlarini nishonlashni taqqladi, hind ibodatxonalarini buzib tashlashni buyurdi."
- III. "U XVI asrda Usmonlilar imperiyasi sultonini bo'lgan. 1514-yilda Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shinini tor-mor etdi. Bu g'alaba sultonning Eron shohi ittifoqchisi bo'lgan Misr sultonligiga qarshi yurish boshlashiga yo'l ochdi. U dastlab Suriya va Falastinni bosib oldi. 1517-yilda esa Misr poytaxti Qohira shahrini egalladi."
- Javob: _____
-
- Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
5. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida quyidagi davlatlar tashqi siyosatida amalga oshirilgan ishlar mos ravishda ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- 1) Buyuk Britaniya; 2) Fransiya; 3) AQSh; 4) Germaniya;
- a) 1891-yilda Rossiya bilan tashqi hujum sodir etilganda, har ikki tomon bir vaqtning o'zida harbiy safarbarlik e'lon qilishini ko'zda tutuvchi bitimni imzoladi; b) 1901-yil Panama kanali qurilishi huquqini AQShga berdi; c) Tinch okeanning markazida, Osiyoga olib boradigan strategik jihatdan muhim bo'lgan dengiz yo'llari kesishgan joydagi Gavayi orollarini bosib oldi; d) Yaponiya hukumati Janubiy Saxalinga bo'lgan da'vosidan voz kechishi sharti bilan Kuril orollarining shimoliy qismini Yaponiyaga berish to'g'risida shartnomaga tuzishga muvaffaq bo'ldi; e) XIX asrning 90-yillarida Shandun provinsiyasining bir qismini, Tinch okeandagi Karolina, Mariana orollarini va Samoa orolining bir qismini egalladi.
- A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d B) 1-a, 2-e, 3-d, 4-c
 C) 1-c, 2-b, 3-d, 4-e D) 1-b, 2-a, 3-c, 4-e

6. Quyida berilgan ma'lumotlardan qaysilari Eronning 1870-1918-yillar tarixiga **oid emas?**
- 1) Safaviylar sulolasi hukmronligining boshlanishi; 2) Buyuk Britaniya-Rossiya bitimiga ko'ra, Eron hududining uch qismga bo'linishi; 3) Pahlaviylar sulolasi hukmronligining boshlanishi; 4) mamlakat tarixidagi birinchi inqilobning boshlanishi; 5) mamlakat tarixidagi birinchi parlament – "Majlis"ning tuzilishi; 6) mamlakatda "Islom inqilobi"ning boshlanishi; 7) Muhammad Alishohning taxtdan ag'darilishi; 8) Eron Islom Respublikasi deb e'lon qilinishi; 9) inglizlar va ruslar yordamida shoh tomonidan aksilinqilobiy davlat to'ntarishining amalga oshirilishi; 10) ayollarning chodra o'rab yurishlarini bekor qilish to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi
- A) 2, 4, 5, 7, 9 B) 1, 3, 5, 7, 9
 C) 1, 3, 6, 8, 10 D) 2, 4, 6, 8, 10

7. 1930-yil burjua inqilobi natijasida oligarxiya (qahva oligarxiyasi) rejimi ag‘darilgan (a) va konservativ oligarxiya rejimi o‘rniga liberal-islohotchilar kelgan (b) Lotin Amerikasi davlatlarini aniqlab, mos ravishda yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

8. Eronning jahon hamjamiyatiga to‘laqonli integratsiyalashuviga to‘sinq bo‘lib turgan yadroviy dasturi 2015-yil iyulda qaysi davlatlar vakillari bilan imzolagan kelishuvi orqali hal qilindi?
- 1) Hindiston; 2) AQSh; 3) Rossiya;
 4) Iordaniya; 5) Xitoy; 6) O‘zbekiston;
 7) Buyuk Britaniya; 8) Fransiya; 9) Pokiston;
 10) Germaniya; 11) Iroq
 A) 2, 3, 6, 7, 9, 10 B) 2, 3, 5, 7, 8, 10
 C) 1, 4, 5, 8, 9, 11 D) 1, 4, 5, 6, 7, 11

9. Quyida berilgan ma’lumotlar qaysi davlatlar haqida ekanligini aniqlab, mos ravishda yozing.
 I. "IV asrning 70-yillardan V asrning ikkinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan. Bu davlatga turkiy qabilalardan biri asos solgan bo‘lib, davlatning markazi Zarafshon vohasida edi. Davlatga asos solgan qabila dastlab Zarafshon vohasini egallagach, janubga harakat qilgan va ancha zaiflashib qolgan Kushon podsholigi o‘rnini egallagan. Davlat markazi Toxariston bo‘lib, Shimoliy Hindiston, Afg‘oniston, Xurosonning bir qismini ham o‘z ichiga olgan".
 II. "Bu davlatga qadimda Oltoyning g‘arbida, so‘ngra Irtish daryosining o‘rta oqimida yashagan qadimiy turkiy qabilalardan biri asos solgan. Davlat VIII asr o‘rtalarida tashkil topgan. Poytaxti Chu daryosidan shimalroqda joylashgan Suyob shahri edi. Davlat hukmdori "yabg‘u" yoki "jabg‘u" deb yuritilgan".

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

10. XX asr boshlarida quyida berilgan hududlarda faoliyat olib borgan jadidchilik harakati namoyandalarini aniqlang (javob uchun ajratilgan joyga faqat harf va raqamlarni moslashtirib yozing).
- a) Toshkent; b) Samarqand; c) Buxoro;
 d) Farg‘ona vodiysi; e) Xiva;
 1) Mahmudxo‘ja Behbudiy; 2) Polvonniyoz hoji Yusupov; 3) Abduqodir Shakuriy; 4) Abdulla Avloniy; 5) Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev; 6) Fayzulla Xo‘jayev; 7) Hamza Hakimzoda Niyoziy; 8) Obidjon Mahmudov; 9) Abdulhamid Cho‘lpon; 10) Is’hoqxon Ibrat; 11) Bobooxun Salimov; 12) Saidahmad Siddiqiy-Ajziy; 13) Munavvarqori Abdurashidxonov; 14) Abdurauf Fitrat; 15) Sadriddin Ayniy

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

11. 1990-yil 1-noyabrda qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasida ijroiya va boshqaruvin hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O‘zbekiston SSR Konstitutiyasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra ...
 1) prezidentlik hokimiyati bilan Ministrlar Sovetining ijroiya-boshqaruvin hokimiyati qo‘sib yuborildi;
 2) Vitse-prezident lavozimi tugatildi va O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimi ta’sis etildi;
 3) O‘zbekiston Respublikasi Ministrler Soveti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi;
 4) prezidentlik lavozimi vakolati 7 yil qilib belgilandi;
 5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtida Vazirlar Mahkamasining Raisi bo‘lishi belgilab qo‘yildi;
 6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Ministrler Sovetining apparati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi bitta apparatga birlashtirilishi belgilandi.

A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5, 6 C) 2, 3, 4, 6
 D) 1, 2, 5, 6

- 12.** Quyida sanab o'tilganlardan qaysilari "Anqara jangi"dan keyin yuz bergan? (Javob uchun ajratilgan joyga barcha to'g'ri bandlarning faqat raqamlarini yozing.)
- 1) Amir Temur tomonidan Hirot, Seiston, Mozandaronning egallanishi; 2) Amir Temur tomonidan Xitoya qarshi harbiy yurishning boshlanishi; 3) Amir Temur tomonidan Hindistonga qo'shin tortilishi va Dehli shahrining egallanishi; 4) Xalil Sulton Mirzo tomonidan Samarcand egallanib, o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilinishi; 5) Amir Temur tomonidan Xorazmning uzil-kesil bo'ysundirilishi; 6) Mironshohning Qoraqo'yunli turkmanlarning qabila boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda halok bo'lishi; 7) Ilyosxo'janing Movarounnahrga qo'shin tortishi; 8) Mirzo Ulugbekning Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlanishi.
- Javob: _____
- Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
- 13.** 1920-yil 6-8-oktabrda Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyida BXSR tuzilganligi e'lon qilingach, BXSRning dastlabki hukumati tarkibiga kiritilgan shaxslarni ular egallagan lavozimlari bilan mos ravishda berilgan javobni aniqlang.
- 1) Fayzulla Xo'jayev; 2) Qori Yo'ldosh Po'latov;
 - 3) Muxtorjon Saidjonov; 4) Usmon Xo'ja;
 - 5) Najib Husainov; 6) Yu.Ibrohimov;
 - 7) Mukammal Burhonov; 8) Mirzo Muhiddin Mansurov; 9) Shihobuddinov;
 - a) moliya noziri; b) davlat nazorati noziri;
 - c) favqulodda komissiya raisi; d) adliya noziri;
 - e) tashqi ishlar noziri; f) ichki ishlar noziri;
 - g) maorif noziri; h) harbiy ishlar noziri;
 - i) savdo va sanoat noziri
- A) 1-a, 2-c, 3-d, 4-f, 5-b, 6-g, 7-i, 8-e, 9-h
 B) 1-e, 2-g, 3-f, 4-a, 5-b, 6-c, 7-d, 8-i, 9-h
 C) 1-e, 2-g, 3-h, 4-a, 5-f, 6-c, 7-b, 8-i, 9-d
 D) 1-a, 2-c, 3-f, 4-g, 5-b, 6-i, 7-d, 8-e, 9-h
- 14.** Quyida berilgan atama (tushuncha) lardan Buyuk Fransuz burjua inqilobi davriga oid bo'lganlarini aniqlang.
- 1) termidor; 2) imperiya; 3) konvent;
 - 4) gomrul; 5) direktoriya; 6) konsul;
 - 7) chartistlar; 8) terror; 9) "qalqon puli";
 - 10) royalistlar; 11) best; 12) kommuna;
 - 13) oprichnina; 14) absolutizm;
 - 15) samoderjaviye; 16) irredentizm
- A) 2, 4, 5, 8, 11, 13, 14, 15
 B) 2, 3, 6, 9, 11, 13, 14, 16
 C) 1, 4, 7, 9, 10, 12, 15, 16
 D) 1, 3, 5, 6, 8, 10, 12, 14
- 15.** Quyidagilardan qaysilarida davlat – shaxs – voqeа mosligi to'g'ri berilgan?
- 1) Iroq – Saddam Husayn – Quvaytga bostirib kirib, uning hududini egalladi;
 - 2) GFR – Gelmut Kol – GFR NATOga a'zo bo'ldi;
 - 3) Yaponiya – Tosiki Kayfu – Quvayt Iroq tomonidan anneksiya qilinishi paytida Misr, Iordaniya va Turkiyaga moliyaviy yordam berdi;
 - 4) Falastin – Yosir Arofat – Falastin kuzatuvchi davlat maqomida BMT faoliyatida qatnashish huquqini oldi;
 - 5) AQSh – Duayt Eyzenxauer – mamlakatda makkartizm avj oldi;
 - 6) Pokiston – Parvez Musharraf – 2003-2005-yillarda Pokiston armiyasi AQSh yordamida Afg'oniston hududida harbiy operatsiyalar olib bordi;
 - 7) Fransiya – Jak Shirak – Angliya bilan hamkorlikda La-Mansh bo'g'ozni ostidan o'tgan temiryo'l tonneli (Yevronnel) qurildi;
 - 8) Eron – Muhammad Rizo Pahlaviy – mamlakatda "oq inqilob" deb nom olgan islohotlarni amalga oshirdi;
 - 9) Chili – Salvador Alyende – mamlakatda davlat to'ntarishini amalga oshirdi;
 - 10) Buyuk Britaniya – Margaret Tetcher – Folkland orollari uchun Argentina bilan urush harakatlarini olib bordi
- A) 2, 4, 5, 6, 7, 10 B) 1, 2, 3, 4, 7, 9
 C) 2, 3, 6, 7, 8, 9 D) 1, 3, 5, 6, 8, 10

16. Qadimgi davrning quyidagi bosqichlarida insoniyat tarixida yuz bergan voqealar (kashfiyotlar) ni mos ravishda aniqlang (javob uchun ajratilgan joyga faqat harf va raqamlarni moslashtirib yozing).

- 1) mezolit; 2) neolit; 3) bronza; 4) so'nggi paleolit; 5) eneolit;
- a) inson sun'iy tarzda olov hosil qilishni o'rganib oldi; b) inson o'q-yoy yasashni o'rganib oldi; c) kulolchilik paydo bo'ldi;
- d) Qadimgi Sharqda ilk shaharlar va davlatlar vujudga kela boshladi; e) g'ildirak kashf etildi

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

17. Quyida berilgan ma'lumotlar qaysi davlatlar haqida ekanligini aniqlang.

I. "Urushlar, hosilsizlik yillari yoki turli tabiiy ofatlar paytida barcha jabrlanganlarga davlat zaxirasidan makka doni va quritilgan kartoshka tarqatilgan. Poytaxti Kuskoni viloyatlar bilan bog'laydigan, umumiy uzunligi 15 minglab kilometr bo'lgan tosh yo'llar barpo etilgan, viloyatlar orasida pochta xizmati o'rnatilgan." II. "Davlat qadimda hozirgi Efiopiyaning shimalida vujudga kelgan bo'lib, uning yuksalishi IV-V asrlarga to'g'ri keladi. Uning hukmdorlari karvon yo'llari joylashgan Arabistonning janubiy sohillarini, Sharqiy Sudanning bir qismini egallaganlar. Bu davlat Rim imperiyasi, keyinchalik Vizantiya bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan. Shu sababli hukmdor va a'yonlari xristian dinini qabul qilganlar."

- A) I-Mayyalar davlati; II-Gana davlati
- B) I-Asteklar davlati; II-Mali davlati
- C) I-Asteklar davlati; II- Songai davlati
- D) I-Inklar davlati; II-Aksum davlati

18. XX asr boshida Eron inqilobi davrida katta ta'sirga ega bo'lgan mujohidlar tashkiloti quyidagi qaysi talablar bilan chiqqanlar?

- 1) yashirin saylov huquqi; 2) bepul va majburiy ta'lim joriy qilish; 3) mamlakatda parlament tashkil etish; 4) ish vaqtini 8 soat qilib cheklash; 5) vaqf mulkularini dehqonlarga bo'lib berish; 6) jamiyatlar tuzish; 7) monarxiyani bekor qilib, respublika tuzumini o'rnatish; 8) shoh yerlarini musodara qilish

- A) 2, 3, 5, 7, 8 B) 2, 3, 4, 6, 7
- C) 1, 3, 4, 5, 6 D) 1, 2, 4, 6, 8

19. Yaponiyada 1996-yil Ryutaro Xasimoto boshchiligidida tuzilgan bir partiyali hukumat "olti islohot" boshlanishini e'lon qilgan bo'lib, bu islohotlar quyidagilardan qaysilarida o'tkazilishi belgilandi?

- 1) soliq tizimida; 2) harbiy sohada; 3) ta'lim sohasida; 4) ijtimoiy ta'minotda; 5) sud tizimida; 6) iqtisodiyotda davlat boshqaruvini pasaytirish bo'yicha; 7) ma'muriy boshqaruvni detsentralizatsiyalash bo'yicha; 8) pul islohoti; 9) sanoat kompaniyalariga yer uchastkalari ajratish bo'yicha; 10) iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kuchaytirish bo'yicha

- A) 1, 4, 5, 8, 9, 10 B) 1, 3, 4, 6, 7, 9
- C) 2, 3, 5, 6, 7, 8 D) 2, 4, 5, 7, 9, 10

20. Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman bilan Xiva xoni Muhammad Rahimxon II o'rtasida imzolangan Gandimiyon shartnomasidan keltirilgan quyidagi matndagi nuqtalar o'rniga mos keluvchi so'zlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

"Amudaryoning ... (1) qirg'og'idagi ruslar uchun zarur va qulay bo'lgan yerga ular o'zlarining ... (2)larini qurish huquqiga ega. ... (3) ushbu ... (4)larning saqlanishi va xavfsizligi uchun javobgar. Ular uchun joyning tanlanishi ... (5)dagi rus oliy hokimiyatining tasdiqlashiga bog'liq".

- a) o'ng; b) chap; c) qal'a; d) pristan;
 - e) Mahalliy aholi; f) Xonlik; g) cherkov;
 - h) sanoat korxona; i) O'rta Osiyo; j) Rossiya
- A) 1-a, 2-c, 3-f, 4-g, 5-i
 - B) 1-b, 2-d, 3-e, 4-c, 5-j
 - C) 1-a, 2-d, 3-e, 4-h, 5-j
 - D) 1-b, 2-d, 3-f, 4-d, 5-i



21. Urush paytlarida qoraqalpoqlar Xiva xonligiga to'lagan (a) va Qo'qon xonligida harbiy xarajatlarni qoplash uchun joriy etilgan (b) soliqlarni aniqlab, mos ravishda yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

22. Quyidagilardan qadimgi Hindiston (a) va qadimgi Xitoy (b) da amalga oshirilgan kashfiyotlarni aniqlang.

- 1) mino; 2) shakarqamishdan shakar olish;
 - 3) kompas; 4) shaxmat; 5) «nol»ni ifodalovchi maxsus belgi; 6) qog'oz; 7) seysmograf; 8) beton
- A) a-2, 4, 5; b-3, 6, 7 B) a-1, 2, 5; b-4, 6, 7
 - C) a-2, 3, 4; b-1, 6, 8 D) a-1, 4, 6; b-3, 5, 8

- 23.** O'rta asrlar Yevropa me'morchiligidagi mavjud bo'lgan uslublarda qurilgan me'morchilik inshootlari mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.
 1) gotika uslubi; 2) roman uslubi; 3) vizantiya uslubi;
 a) Dojlar saroyi; b) Bibi Maryam ibodatxonasi;
 c) Puate ibodatxonasi; d) Al-Hamro saroyi
 A) 1-a, 2-c, 3-b B) 1-b, 2-c, 3-d
 C) 1-d, 2-c, 3-b D) 1-b, 2-c, 3-a
- 24.** Quyida berilgan olimlar va ularning kashfiyotlari yillari bilan mos ravishda berilgan javobni toping.
 I) M.G.Kucherov; II) V.Galvane; III) F.Lyofer;
 IV) V.Grinyar; V) F.A.Lesh; VI) S.Arrenius;
 VII) J.Tomson;
 a) manfiy zaryadlangan metall plastinka yoy lampa nuri bilan yoritilganda o'z zaryadini yo'qotishini isbotladi; b) gidratlanish reaksiyasini kashf etdi; c) xilma-xil organik moddalarni sintez qilish usulini kashf etdi;
 d) amyoba dizenteriyasini tug'diruvchi mikrobnini aniqladi; e) bo'g'ma tug'diruvchi mikrobnini topdi; f) elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasini yaratdi; g) katod nurlari manfiy zaryadli zarrachalar – elektronlar oqimi ekanligini aniqladi.
 1) 1884-yil; 2) 1881-yil; 3) 1900-yil; 4) 1888-yil;
 5) 1875-yil; 6) 1887-yil; 7) 1897-yil; 8) 1870-yil;
 9) 1904-yil
 A) I-b-2, II-a-4; III-e-1; IV-c-3; V-d-5; VI-f-6;
 VII-g-7
 B) I-b-3; II-a-1; III-c-5; IV-e-4; V-d-9; VI-f-2;
 VII-g-7
 C) I-c-9; II-b-3; III-a-4; IV-g-8; V-f-6; VI-d-7;
 VII-e-5
 D) I-c-2; II-d-4; III-e-7; IV-b-5; V-f-6; VI-a-3;
 VII-g-8
- 25.** Davlat – voqeа – shaxs mosligi to'g'ri berilgan javobni toping.
- A) Movarounnahr – "oq kiyimlilar" qo'zg'oloni – Bobo-Go'khan boshchiligidida
 B) Angliya – Jakeriya qo'zg'oloni – Uot Tayler boshchiligidida
 C) Turkiston o'lkasi – Jizzax qo'zg'oloni – Darvishxon boshchiligidida
 D) Koreya – Li hukmron sulolasiga qarshi eng yirik qurolli qo'zg'olon – Xon Gyon Ne boshchiligidida
- 26.** Quyida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni aniqlang.
- Qarluqlar davlati O'g'uzlar davlati
- 
- a) ilk o'rta asrlarda Yettisuv o'lkasida tashkil topgan; b) Turk xoqonligi hukmronligi davrida uning tarkibida bo'lgan; c) Sirdaryo havzasini hamda Orol dengizi bo'yida tashkil topgan;
 d) aholisi o'zbek va tojiklarning etnogenezida muhim rol o'ynagan; e) janubda yag'molar vohasi va Sharqiy Turkiston bilan chegaralangan; f) poytaxti Chu daryosidan shimalroqda joylashgan Siyob shahri bo'lgan;
 g) aholisi islam dinini qabul qilgan; h) poytaxti Yangikent shahri bo'lgan; i) aholisi turkmanlar va qoraqalpoqlarning etnogenezida muhim rol o'ynagan; j) Movarounnahrning shimoliy hududlarini egallagach, Shosh hamda Farg'ona va Zarafshon vodiylariga kelib o'rnashgan;
 k) shimoli sharqdan qo'zg'algan qipchoqlar zarbasiga uchrab parchalanib ketgan; l) Arab xalifaligi tomonidan bosib olingan.
- A) I-a, d, f, k; II-b, c, i, j; III-e, l
 B) I-a, f, i, k; II-c, d, e, j; III-b, g
 C) I-c, h, i, k; II-a, b, d; III-e, l
 D) I-a, d, e, f, j; II-c, h, i, k; III-b, g
- 27.** Xaritada BRIKS tashkilotiga a'zo davlatlar qaysi raqamlar ostida berilgan?
- 
- A) 2, 3 B) 4, 6 C) 3, 6 D) 1, 5

28. Quyidagi jadvalning qaysi qatorlarida tarixiy voqealarning natijalari to‘g‘ri berilgan?

Nº	Voqea	Natija
1.	1618-1648-yillardagi O‘ttiz yillik urush	Yevropada siyosiy gegemonlik Germaniyaga o‘tdi
2.	1853-1856-yillardagi "Qrim urushi"	G‘arb davlatlarining Turkiya ustidan homiyligini o‘rnatgan Parij Tinchlik shartnomasi imzolandi
3.	1861-1865-yillarda AQShdagi fuqarolar urushi	Qulchilik bekor qilindi
4.	1524-1526-yillardagi "Buyuk dehqonlar urushi"	Germaniyada siyosiy tarqoqlikning davom etishiga sabab bo‘ldi
5.	Fransiya-Prussiya urushi	Fransiyada ikkinchi imperiya o‘rnatildi
6.	Birinchi afyun urushi	Buyuk Britaniya Gonkongni qo‘lga kiritdi
7.	1894-1895-yillardagi yapon-xitoy urushi	Yaponiyaning Uzoq Sharqda gegemonlik qilishi uchun yo‘l ochildi

- A) 1, 2, 3, 4, 6 B) 2, 4, 5, 6, 7 C) 2, 3, 4, 6, 7 D) 1, 2, 3, 6, 7

29. Jadvalning harflar bilan belgilangan kataklariga mos keluvchi ma’lumotlarni aniqlang (javob uchun ajratilgan joyga faqat harf va raqamlarni moslashtirib yozing).


Hukmdor	Voqea	Yil
Tokugava Ieyasu	a	b
c	Fransiya tarixida birinchi Konstitutsiyaning qabul qilinishi	1791
d	Rossiya tomonidan Alyaskaning AQShga sotilishi	1867
Mustafo III	e	f
g	Ingliz-afg‘on do‘stlik shartnomasining imzolanishi	1855

Ma’lumotlar: 1) 1512-y.; 2) 1592-y.; 3) 1603-y.; 4) 1768-y.; 5) Lyudovik XVIII; 6) Fathxon; 7) Do‘sst Muhammadxon; 8) imperator Aleksandr II; 9) imperator Nikolay I; 10) Lyudovik XVI; 11) Yaponiyada imperator Meydzining taxtga chiqishi; 12) Yaponiyada uchinchi syogunlikka asos solinishi; 13) Rossiyaga qarshi urushning boshlanishi; 14) Misr poytaxti Qohiraning egallanishi

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

30. Quyidagi grafikda qaysi raqamlar ostida asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?
(Javob uchun ajratilgan joyga faqat raqamlarni yozing.)



Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.